

---

## “Konstitutsiya – xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!”

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan tarixiy sananing 31 yilligi munosabati bilan Buvayda tumanida bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Bugun Tumanimiz Madaniyat markazida “Konstitutsiya - xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirni Buvayda tumani Hokimi Behzodjon Ibragimov ochib berdilar. Shundan so‘ng Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i Yangi tahrirdagi konstitutsiya haqida ma‘lumot berdi.

Tuman madaniyat bo‘limi xodimlari hamda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Yahyobek Mo‘minovlar ishtirokidagi badiiy chiqishlar tadbiriga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi.

2023-12-07 09:27:14